


## NAVOIY VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI (2020-yil yanvar-aprel, dastlabki ma'lumotlar)

Navoiy viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1 939,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 90,5 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 355,5 mlrd. so'mni (2019-yilning mos davriga nisbatan 38 % ga o'sdi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 584,3 mlrd. so'mni (2019-yilning mos davriga nisbatan 84,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 96,5 mlrd. so'mni (2019-yilning mos davriga nisbatan 82,3 % ni) tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Qiziltepa tumani, Xatirchi tumani va Zarafshon shahrini misol keltirishimiz mumkin.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'zgarish sur'atlari



2019-yilning mos davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasida pasayish kuzatildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan 38,0 % ga o'sdi va 355,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 18,3 % ulushiga to'g'ri keladi.

**Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Jami, mlrd. so'm	<i>Jamidan:</i>			
		Yirik korxonalar, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1 939,8</b>	<b>355,5</b>	<b>18,3</b>	<b>1 584,3</b>	<b>81,7</b>
Navoiy sh.	724,4	316,1	43,6	408,3	56,4
Zarafshon sh.	169,4	4,8	2,8	164,6	97,2
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	315,0	8,8	2,8	306,2	97,2
Konimex	48,2	2,3	4,9	45,9	95,1
Qiziltepa	218,7	2,6	1,2	216,1	98,8
Navbahor	99,5	10,9	11,0	88,6	89,0
Nurota	67,5	0,7	1,0	66,9	99,0
Tomdi	12,9	0,2	0,9	12,7	99,1
Uchquduq	73,9	0,1	0,2	73,7	99,8
Xatirchi	210,3	9,0	4,3	201,3	95,7


Shuningdek, yuqorida jadvaldan ko'rinib turibdiki, chakana tovar aylanmasi tahlil qilinganida shahar va tumanlar orasida eng yuqori chakana savdo tovar aylanmasiga ega

bo'lgan hudud bu Navoiy shahri bo'lib, uning tovar aylanmasi 724,4 mlrd. so'm (2019-yilning mos davriga nisbatan 92,7 %) ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 1584,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 84,0 % ni tashkil etdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 81,7 % ga teng kelmoqda.

Shuningdek, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarning 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida pasayish kuzatilmogda.

**Chakana savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar,  
kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi, foizda**



2020-yilning yanvar-aprel oylari tahliliy natijalariga qaraganda, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 81,7 foizni tashkil etib, mazkur ko'rsatkich bo'yicha shahar va tumanlar orasida Uchquduq (99,8 %), Tomdi (99,1 %), Nurota (99,0 %), Qiziltepa (98,8 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 18,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush asosan Navoiy shahrida (43,6 %), Navbahor tumanida (11,0 %) Konimex tumani (4,9 %) va Xatirchi tumani (4,3 %) kuzatilgan.

Quyidagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2020-yil yanvar-aprel oylarida 1 932,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 94,5 foizni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli bo'yicha  
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm**


	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1 939,8</b>	<b>1 932,3</b>	<b>7,5</b>
Navoiy sh.	724,4	717,0	7,4
Zarafshon sh.	169,4	169,4	-
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	315,0	314,9	0,1
Konimex	48,2	48,2	-
Qiziltepa	218,7	218,7	-
Navbahor	99,5	99,5	-
Nurota	67,5	67,5	-
Tomdi	12,9	12,9	-
Uchquduq	73,9	73,9	-
Xatirchi	210,3	210,3	-

**Mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi ulushi**

**2019-yil yanvar-aprel**




**2020-yil yanvar-aprel**



Shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2020-yil yanvar-aprel oylarida 7,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 2,5 b. ko'paydi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (37,4 %), Karmana tumani (16,2 %), Qiziltepa tumani (11,3 %), Xatirchi tumani (10,8 %), va Zarafshon shahri (8,7 %) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.


### Chakana savdo tovar aylanmasida viloyat hududlarining ulush, foizda



Jumladan, 2020-yilning yanvar-aprel oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,1 % ni tashkil etib, 41,5 mlrd. so'mga yetdi yoki 2019-yilning mos davriga nisbatan 74,1 % ni tashkil qildi.

Bunda jami savdo aylanmasining 88,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

**Hududlar kesimida ovqatlanish  
tashkilotlari savdo aylanmasi hajmi, mlrd. so'm**



**Mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalarining  
savdo aylanmasi hajmi, mlrd. so'm**

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>41,5</b>	<b>38,2</b>	<b>3,3</b>
Navoiy sh.	17,0	13,8	3,2
Zarafshon sh.	6,8	6,8	-
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	7,0	6,9	0,1
Konimex	0,7	0,7	-
Qiziltepa	3,0	3,0	-
Navbahor	1,2	1,2	-
Nurota	0,8	0,8	-
Tomdi	0,4	0,4	-
Uchquduq	1,3	1,3	-
Xatirchi	3,3	3,3	-


Quyidagi diagrammadan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2020-yil yanvar-aprel oylarida 38,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 74,6 foizni tashkil etdi.

### Mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi ulushi

2019-yil yanvar-aprel



2020-yil yanvar-aprel



Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2020-yil yanvar-aprel oylarida 3,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 73,4 foizga o'sdi.

### Viloyatda yirik umumiyo ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi

	Jami, mlrd. so'm	2019-yilning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar		
			Hajmi, mlrd. so'm	2019-yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
Navoiy viloyati	41,5	74,1	4,8	81,9	11,5
Navoiy sh.	17,0	72,1	3,8	66,4	22,4
Zarafshon sh.	6,8	82,3	0,9	-	12,9

tumanlar:

Karmana	7,0	74,4	0,1	131,0	0,8
Konimex	0,7	71,8	-	-	-

Qiziltepa	3,0	71,9	-	-	-
Navbahor	1,2	71,5	-	-	-
Nurota	0,8	72,2	-	-	-
Tomdi	0,4	79,4	-	-	-
Uchquduq	1,3	75,4	-	-	-
Xatirchi	3,3	72,5	-	-	-

Shuningdek, ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning savdo aylanmasi 4,8 mlrd. soʻmni (2019-yilning mos davriga nisbatan 18,1 % ga kamaygan), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining savdo aylanmasi 36,7 mlrd. soʻmni (2019-yilning mos davriga nisbatan 73,2 % ni) tashkil etdi.

### **Viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik umumiyligi ovqatlanish subyektlarining savdo aylanmasi hajmi**

	Jami, mlrd. soʻm	2019-yilning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari		
			Hajmi, mlrd. soʻm	2019-yilning mos davriga nisbatan, foizda	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>41,5</b>	<b>74,1</b>	<b>36,7</b>	<b>73,2</b>	<b>88,5</b>
Navoiy sh.	17,0	72,1	13,2	73,9	77,6
Zarafshon sh.	6,8	82,3	5,9	71,6	87,1

*tumanlar:*


Karmana	7,0	74,4	6,9	74,1	99,2
Konimex	0,7	71,8	0,7	71,8	100,0
Qiziltepa	3,0	71,9	3,0	71,9	100,0
Navbahor	1,2	71,5	1,2	71,5	100,0
Nurota	0,8	72,2	0,8	72,2	100,0
Tomdi	0,4	79,4	0,4	79,4	100,0
Uchquduq	1,3	75,4	1,3	75,4	100,0
Xatirchi	3,3	72,5	3,3	72,5	100,0

## **NAVOIY VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

(2020-yil yanvar-aprel, dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-aprel oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 510,9 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 35,2 foizga kamaydi. Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlarining tovar aylanmasi hajmiga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra 337,2 mlrd. so'mni, 2019-yilning mos davriga nisbatan 91,0 % ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 66,0 % ni tashkil qilmoqda. Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi esa 34,0 % ni tashkil etdi. Shuningdek, shahar va tumanlar orasida eng yuqori ulgurji savdo tovar aylanmasiga ega bo'lgan hudud bu Navoiy shahri bo'lib, uning tovar aylanmasi 303,7 mlrd. so'm (2019-yilning mos davriga nisbatan 53,9 %)ni tashkil etadi.

### **Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd.so'm**



Quyidagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2020-yil yanvar-aprel oylarida 510,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 78,8 foizni tashkil etmoqda.

**Hududlar kesimida mulkchilik shakli bo'yicha  
ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm**

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>510,9</b>	<b>510,6</b>	<b>0,3</b>
Navoiy sh.	303,7	303,7	-
Zarafshon sh.	9,4	9,4	-

*tumanlar:*

Karmana	95,6	95,3	0,3
Konimex	2,2	2,2	-
Qiziltepa	35,2	35,2	-
Navbahor	18,0	18,0	-
Nurota	10,6	10,6	-
Tomdi	1,0	1,0	-
Uchquduq	10,1	10,1	-
Xatirchi	25,1	25,1	-

**Mulkchilik shakli bo'yicha  
ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi**

**2019-yil yanvar-aprel**





**2020-yil yanvar-aprel**




Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2020-yil yanvar-aprel oylarida 0,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 39,3 foizga o'sdi.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda



## Ulgurji savdo tovar aylanmasida viloyat hududlarining ulushi



Tahlil natijalariga ko'ra Navoiy viloyatida ulgurji savdo tovar aylanmasining asosini Navoiy shahridagi ulgurji savdo tovar aylanmasi tashkil qiladi va xuddi shuningdek, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (59,4 foiz), Karmana tumani (18,7 foiz), Qiziltepa tumani 6,9 foiz) va Xatirchi tumani (4,9 foiz) ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar va  
kichik biznes subyektlarining hajmi**

	Jami, mlrd. so'm	Kichik biznes subyektlari, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>510,9</b>	<b>337,2</b>	<b>66,0</b>	<b>173,7</b>	<b>34,0</b>
Navoiy sh.	303,7	132,9	43,8	170,8	56,2
Zarafshon sh.	9,4	9,4	100,0	-	-

*tumanlar:*

Karmana	95,6	93,6	97,9	2,0	2,1
Konimex	2,2	1,6	71,3	0,6	28,7
Qiziltepa	35,2	35,2	100,0	-	-
Navbahor	18,0	18,0	100,0	-	-
Nurota	10,6	10,6	100,0	-	-
Tomdi	1,0	1,0	100,0	-	-
Uchquduq	10,1	10,1	100,0	-	-
Xatirchi	25,1	24,8	98,7	0,3	1,3

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari tahlili asosida viloyatda faqatgina Navoiy shahri va Karmana, Konimex va Xatirchi tumanlarida yirik korxonalar tomonidan ulgurji savdo tovar aylanmasi mavjud bo'lib, qolgan 6 ta hududda asosan ulgurji savdo tovar aylanmasi kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi  
Tel: (99879) 222-84-36**